



## OLIV TA'LIM TIZIMIDA LOYIHA ASOSIDA O'QITISH (PROJECT-BASED LEARNING) TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

*O'ZMPU "Texnologiya va professional ta'lim metodikasi" kafedrası  
dotsenti S.Yu.Rajabova*

**Annotatsiya:** Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL) texnologiyasini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Loyiha asosida o'qitish texnologiyasining bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari asosida PBL texnologiyasining ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** loyiha asosida o'qitish, Project-Based Learning, pedagogik ta'lim, bo'lajak pedagog, kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv.

**Аннотация:** В статье рассматриваются теоретико-методологические основы внедрения технологии обучения на основе проектов (Project-Based Learning – PBL) в системе высшего педагогического образования. Проанализированы дидактические возможности PBL в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов. На основе результатов педагогического эксперимента обоснована эффективность проектного обучения.

**Ключевые слова:** проектное обучение, Project-Based Learning, педагогическое образование, будущий педагог, профессиональная компетенция.

**Abstract:** The article examines the theoretical and methodological foundations of implementing Project-Based Learning (PBL) technology in higher pedagogical education. The didactic potential of PBL in developing professional



*competencies of future teachers is analyzed. The effectiveness of project-based learning is substantiated based on experimental results.*

**Keywords:** *Project-Based Learning, pedagogical education, future teacher, professional competence.*

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – raqobatbardosh, ijodkor, kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu esa oliy pedagogik ta'limda an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishni va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan loyiha asosida o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Loyihaga asoslangan o'qitish – bu hayotiy, real muammolar asosida loyihalangan, faol o'rganish orqali chuqur bilimga ega bo'lishi kafolatlangan, o'zgaruvchan sinf-dars yondashuvini o'zida aks ettiradi. Yasseri Dar, Finley M. Patrik, E.Blayne, Devis V. Devid va boshqalarning e'tirof etishicha, PBL aniq dalillarni taqdim etuvchi yoki savol berish, muammolar qo'yish, ularning ssenariylarini taklif qilish orqali bilim olishning ravon yo'lini ko'rsatuvchi, qog'ozga, yodlashga, o'qituvchi boshchiligidagi ko'rsatmalarga tayanishdan farqli ravishda faol o'rganish hamda izlanishga asoslangan o'qitish uslubi negiziga quriladi. Jon Larmer, Jon Mergendoller va Suzi Bosslarning ta'kidlashicha, loyihaga asoslangan o'qitish kuchli o'qitish yondashuvi bo'lib, uni amalga oshirish davomida quyidagilarga ega bo'linadi: - o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantiradi; - o'quvchi va talabalarni oliy ta'limga, kasbga, kasbiy o'sish nuqtalarini belgilashga (individual kasbiy trayektoriyani rejalashtirishga), ijtimoiy faol fuqarolikka tayyorlaydi;

- o'quvchi va talabalardan chuqur bilim hamda fikrlash qobiliyatlarini namoyish etishni talab qiladigan topshiriqlarni yaxshi bajarishga (bizningcha, o'qituvchi uchun ijtimoiy buyurtmani bajarishga) yordam beradi; - o'qituvchilarga yanada qonikarli tarzda dars berish imkonini taqdim qiladi; - ta'lim tashkilotlarini nafaqat ota-onalar, boshqa jamoalar, balki butun dunyo bilan muloqot qilish va



bogʻlanishning yangi usullari bilan taʼminlaydi. Tomas Markxem “PBL bilish va bajarishni birlashtiradi, talabalar oʻrganilayotgan oʻquv dasturidan asosiy bilim, koʻnikma va malakalarni egallaydi, uning samarasi oʻlaroq, hayotiy muammolarni hal qilish va muhim natijalarga erishish uchun bilganlarini amalda qoʻllaydi. PBL taʼlimni oʻquv dasturiga emas, talabaga qaratadi, hamkorlikdagi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun raqamli vositalardan foydalanadi va oʻquvchilarni bugungi jahonda talab qilinayotgan global taraqqiyot, ijodkorlik, hissiy barqarorlik, chidamlilik, hamdardlik kabi nomoddiy boylik bilan mukofotlaydi. Albatta, bularni darsliklardan tashqarida oʻrgatish mumkin emas, lekin tajriba orqali faollashtirish lozim”, deya taʼriflaydi.

Loyiha asosida oʻqitish texnologiyasi pragmatik pedagogika va faoliyatli yondashuv gʻoyalariga tayanadi. J. Dyui taʼlimni talabalarning faol tajribasi orqali tashkil etish gʻoyasini ilgari surgan boʻlsa, U. Kilpatrik loyiha usulini maqsadli va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida asoslab bergan.

PBL texnologiyasining pedagogik taʼlimdagi asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- talabanning taʼlim jarayonida faol subʼekt sifatida ishtirok etishi;
- nazariya va amaliyot integratsiyasi;
- muammoli vaziyatlar asosida oʻqitish;
- reflektiv faoliyatni rivojlantirish.

Pedagogik kompetensiya – oʻqituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatdir. Boʻlajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- pedagogik va psixologik bilimlar;
- taʼlim jarayonini loyihalash va tashkil etish koʻnikmalari;
- kommunikativ kompetensiya;
- ijodiy va innovatsion faoliyatga tayyorlik;
- reflektiv qobiliyatlar.



Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasasining pedagogika yo‘nalishi talabalari ishtirok etdi. “Pedagogik texnologiyalar”, “Ta’lim metodlari” fanlari doirasida loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi qo‘llanildi.

Talabalar quyidagi yo‘nalishlarda pedagogik loyihalar ishlab chiqdilar:

- innovatsion dars ishlanmalari;
- tarbiyaviy tadbirlar loyihalari;
- interaktiv ta’lim usullari;
- pedagogik muammolarga amaliy echimlar.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi qo‘llanilgan guruhlarda talabalarning:

- kasbiy faoliyatga qiziqishi;
- mustaqil fikrlash qobiliyati;
- ijodiy faolligi;
- pedagogik refleksiyasi sezilarli darajada oshgan.

Bu holat PBL texnologiyasining pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

### Loyiha asosida (PROJECT-BASED LEARNING) o‘qitishning afzallik va kamchiliklari

Afzalliklar	Ilmiy izoh	Kamchiliklar	Ilmiy izoh
Amaliy yo‘naltirilgan ta’lim	Nazariy bilimlar real muammolarni hal qilish orqali mustahkamlanadi, bilimning transferi ta’minlanadi	Ko‘p vaqt talab etadi	Loyihani rejalashtirish, bajarish va baholash an’anaviy darslarga nisbatan ko‘proq vaqt oladi



Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi	Talabalar muammoni tahlil qilish, yechim taklif etish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi	Barcha fanlar uchun mos emas	Ayrim fundamental yoki nazariy fanlarda PBL to'liq samara bermasligi mumkin
Mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantiradi	Talaba axborot izlash, saralash va tahlil qilishni o'rganadi	Talabalar faolligida nomutanosiblik	Guruhda ayrim talabalar faol, boshqalari esa passiv ishtirok etishi mumkin
Jamoada ishlash kompetensiyasini oshiradi	Kommunikatsiya, hamkorlik va liderlik ko'nikmalari rivojlanadi	Baholash murakkab	Jamoaviy ishda individual hissani aniq baholash qiyin
Motivatsiyani oshiradi	Real hayotga bog'liq loyihalar talabalar qiziqishini kuchaytiradi	O'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik talab qiladi	O'qituvchi fasilitator, maslahatchi rolini bajara olishi kerak
Kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi	Mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalar (soft skills) rivojlanadi	Resurslarga bog'liqlik	Texnika, axborot manbalari va moddiy resurslar yetishmasligi samaradorlikni pasaytiradi



## Xulosa

Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali innovatsion texnologiya hisoblanadi. Uni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga olib keladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. *Experience and Education*. – New York, 1938.
2. Kilpatrick W.H. *The Project Method*. – Teachers College Record, 1918.
3. Полат Е.С. Инновационные педагогические технологии. – М.: Академия, 2020.
4. Ходжаев В.Р. Педагогик kompetensiya nazariyasi. – Toshkent, 2021.
5. Thomas J.W. *A Review of Research on Project-Based Learning*. – 2000.
6. Qodirov A.A. Педагогик innovatsiyalar. – Toshkent, 2022.